Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

CHET TILI TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV-KOGNITIV TAMOYILLARGA ASOSLANGAN O'QUV MATERIALLARINI ISHLAB CHIQISH ZARURATI

Feruza Elmurodovna Sattorova*
Samarqand davlat chet tillar instituti Katta o'qituvchi, PhD, doktorant
✉ femehribon2016@gmail.com

ANNOTATSIYA

Tilni bilish va undan unumli foydalanish o'ta murakkab jarayon bo'lib, muloqot tez va oson, tushunarli kechishi tilshunoslikning pragmatika sohasi bo'yicha bilimlarga ehtiyojni oshiradi.Pragmatik bilimlarni o'quvchilarga singdirish uchun esa kommunikativ-kognitiv tamoyillari asosida tuzilgan o'quv materiallariga ehtiyojni oshiradi. Ushbu maqolada esa o'quv materiallarini ta'lim maqsadlarga moslash uchun qanday tamoyillarni inobatga olish bo'yicha ba'zi mulohzalar ta'kidlangan.

Kalit so'zlar

kommunikativ, vazifaviy, kognitiv, onglilik, til portfoliosi, lingvodidaktik tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.22053898

KIRISH

Ingliz tilini o'qitish jarayoniga maktab dasturiga kiritilgan majburiy fan sifatida qaralardi, ammo keyingi yillarda ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda zamonaviy yo'nalishlarning kirib kelishi, xususan, kommunikativlik tamoyili asosida o'qitish bu sohada yangi yo'nalishlar vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Kommunikativlik tamoyili asosida o'qitish metodologiyasida tilni o'qitishdan maqsad til o'qitishda o'quvchi va o'qituvchining roli, darslarda o'quv jarayoniga yordam beradigan mashg'ulotlarni tushunish muhim sanaladi.

Kommunikativlik asosida til o'qitishning vujudga kelishi o'quv materiallariga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi, avvallari grammatik qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan dialoglarni yodlash, to'gri gaplar tuzishga qaratilgan mexanik mashqlar o'rnini, turli o'yinli mashqlar, juft bo'lib ishlash, kichik guruhlarda ishlash kabi o'zaro hamkorlikka chorlaydigan mashqlar egallay boshladi.

Ayniqsa, Yevropacha "Til portfoliosi"da til o'rganuvchilarning tajribalari va yutuqlarining yozib borilishi va shu tarzda ularning qobiliyatini aniqlash bu sohada qilingan noan'anaviy yo'llardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar qobiliyatini aniqlashda " can/do" tamoyili asosida baholaydigan CEFR tizimining joriy qilinishi chet tilini o'qitish faqat muvaffaqiyatsizlik va xatolarga urg'u berishdan ko'ra bolalarning qobiliyatini baholashga urg'u berilishi bu sohadagi yana bir yutuq deb ta'kidlash mumkin.

Bundan tashqari, ta'limga onglilik tamoyilining kirib kelishi (kognitiv metodika) uning sifat jihatdan o'sishiga turtki bo'ldi va uni qisqacha qilib quyidagicha izohlash mumkin:

1. O'quv materiallarida berilgan ma'lumotlarni shunchaki yod olish emas, balki talaba uning yordamida yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishi, o'zi uchun biror yangilikni kashf etishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.
2. Talaba passiv tinglovchi emas, balki tadqiqotchi bo'lishi kerak.
3. O'qituvchining roli verbal-ongli ta'limda ko'rsatma beruvchi bo'lmog'i darkor.

4. O‘quvchi esa dars jarayonida izlanar ekan, muammoga yechim topib, uni himoya qilishga intilmog‘i lozim.
5. O‘quv materiallari esa o‘rganuvchining yosh psixologiyasi va aqliy- fiziologik qobiliyatiga mos bo‘lmog‘i zarur.

O‘quv materialini lingvodidaktik tahlil qilishda asosan ikki malakaga e’tibor beriladi:

1. Duch kelinadigan (fonetik, leksik, grammatik) qiyinchiliklarning shakl (forma), ma’no (semantika), qo‘llanish (funksiya) jihatdan aniqlash uchun dars (yoki ularning bir guruhi)dagi til materialini tahlil qila olish;
2. Turli metodik usullar va mashqlar tizimi yordamida o‘rganilayotgan o‘quv materialida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf qilish yo‘llarini topa olish [4;39].

O‘tgan asrning 60-70-yillarida shakllangan kommunikativ yo‘nalishda vazifaviylik tamoyili asosiy va zarur tamoyillardan hisoblanadi. Ammo olg‘a surilgan fikr ya’ni vazifaviyik tamoyilining maqsadlariga erishishni amalga oshirish o‘ylanganidek oson masala emas. Avvalo, til o‘rganishdagi vazifaviylik tamoyilida olg‘a surilgan maqsadlarga erishish uchun analiz, bunday o‘qitishning asoslari va uni darslarda qo‘llash bir tekisda hal qilinadigan masala emas. Xususan, kuzatish texnikalari, vaziyatli o‘qitish, autentik ma’lumotlar to‘plash ko‘p vaqt talab qiladi natijada bu vazifani kam sonli o‘qituvchilargina davomli amalga oshira oladi. Shu tufayli ko‘plab ingliz tili o‘qituvchilari hanuz o‘zlari erishgan tajribaga yoki darsliklarga ishonishadi va bu manbalar mashg‘ulotlar davomida darsdan oldin dars o‘tish mahorati, vazifalari va til elementlari bilan tanishib chiqish kabi imkoniyatlarni beradi deb hisoblashadi [1;60].

Xullas, kommunikativ va kognitiv tamoyillari asosida tuzilgan o’quv matedriallarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish va amaliy maqsadga erishish uchun til o‘qitish dasturlariga bir qancha o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Shuningdek, o‘rganilayotgan kurs ko‘zlagan maqsad va talabalar o‘rganayotgan kursdan qanday amaliy natija kutayotganini,boshqacha aytganda aniq maqsadlarni belgilab olish talabalar va o‘qituvchilar uchun qimmatli motivatsiya bo‘lib xizmat qilgan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ian Tudor. The Dynamics of Language Classroom. – Cambridge.: Cambridge University Press, 2001. – P.234.
2. N.Taguchi. Teaching pragmatics: trends and issues. Annual Review of Applied Linguistics (2011), 31, 289-310. Cambridge University Press, 2011. – P. 290.
3. Арутюнова Н. Д. Истоки, проблемы и категории прагматики [Текст] / Н. Д. Арутюнова, Е. В. Падучева // Новое в зарубежной лингвистике / общ. ред. Е. В. Падучевой. – М. : Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 3-42.
4. Т.Сатторов. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.